

G. V. F. GEGELNING "TARIX FALSAFASI" ASARI: TAHLIL, METOD VA TARIXIY AHAMIYAT.

Rahmatova Marjona

Navoiy davlat universiteti magistranti

Abstract: *This article examines Georg Wilhelm Friedrich Hegel's philosophy of history and its interpretation of historical development as a rational and dialectical process. Hegel considers history as the progressive realization of human freedom through the unfolding of the World Spirit (Geist) in time. The study analyzes the relationship between reason, freedom, and the state in Hegel's historical conception, as well as the role of nations and great individuals in shaping historical progress. Special attention is given to the dialectical method as a tool for understanding social and political transformations. The article also discusses the significance of Hegel's ideas for modern historiography and social philosophy. By exploring Hegel's theoretical framework, the research highlights how historical events can be interpreted not as random occurrences but as interconnected stages of human intellectual and social evolution. The paper concludes that Hegel's philosophy remains an important methodological foundation for interpreting historical processes.*

Keywords: *Hegel, philosophy of history, dialectics, World Spirit, historical progress, historiography, social philosophy, German idealism.*

KIRISH

Tarix falsafasi insoniyat taraqqiyoti qonuniyatlarini, tarixiy jarayonlarning ichki mantiqini hamda jamiyat rivojlanishining umumiy yo'nalishini tushuntirishga qaratilgan muhim nazariy yo'nalishlardan biridir.

Nemis klassik falsafasining yirik namoyandasi Georg Wilhelm Friedrich Hegel tarixni aql va erkinlikning bosqichma-bosqich namoyon bo'lish jarayoni sifatida talqin qilgan. Uning "Tarix falsafasi" asari tarixiy jarayonlarni dialektik yondashuv asosida izohlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad

Gegelning tarix falsafasi haqidagi qarashlarini tahlil qilish, tarixiy taraqqiyot, erkinlik g'oyasi va davlatning o'рни haqidagi konsepsiyalarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning vazifasi esa Hegelning tarixiy jarayonlarga bergan falsafiy talqinini o'rganish, dialektik metodning tarixni tushunishdagi ahamiyatini ko'rsatish hamda uning g'oyalarining zamonaviy tarixshunoslikdagi o'rnini yoritishdan iborat. Mazkur tadqiqotning mohiyati tarixni tasodifiy hodisalar yig'indisi emas, balki muayyan qonuniyatlar asosida rivojlanib boruvchi mantiqiy jarayon sifatida tushuntirishga qaratilgan.

Asosiy qism. Georg Vilgelm Fridrix Hegel (1770–1831) XIX asr nemis idealizmining yetakchi vakili bo'lib, tarix falsafasini o'ziga xos metod va yondashuv bilan talqin qilgan. Uning „Tarix falsafasi“ (nemischa: „Vorlesungen über die Geschichte der Philosophie“) asari nafaqat falsafiy tizimlarning tafsili, balki tarixiy rivojlanishning dialektik

printsipalarini ochib beruvchi muhim manbadir. Gegel tarix falsafasini faqatgina shaxslar yoki faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ruh (Geist)ning o'zini anglash jarayoni sifatida ko'radi. Ushbu yondashuv tarixiy hodisalarni falsafiy kontekstga joylashtirishga yordam beradi. Gegelning "Tarix falsafasi" asari inson tafakkurining paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zini anglash bosqichlarini chuqur tahlil etishga bag'ishlangan ulkan ilmiy merosdir.³² U o'z davrining eng pishiq, eng qudratli falsafiy tizimiga ega bo'lgan mutafakkir sifatida tarixni shunchaki voqealar ketma-ketligi emas, balki fikrning harakat shakli, ruhning o'zini ochib berish jarayoni deb tushuntiradi. Gegel uchun tarix falsafasi-bu insoniyatning eng oqilona faoliyati bo'lgan tafakkurning o'zini tarbiyalashi, o'zini bilishi va o'zini mukammallashtirishi yo'lidir. U o'z ma'ruzalarida tarixni klassik tasavvurlardan farqli ravishda, dialektik o'zgarish, ziddiyatlarning kurashi va inkor-etish-inkor jarayonlari asosida tushuntiradi. Gegelga ko'ra, tarixiy jarayonni boshqaruvchi asosiy kuch-bu "Mutlaq g'oya", "Mutlaq ruh", ya'ni tafakkurning eng oliy shakli bo'lib, u xalq ruhlari, davrlar, madaniyatlar va falsafiy maktablar orqali o'zini bosqichma-bosqich namoyon qiladi.

Gegelning fikricha, har bir davr o'ziga xos falsafaga ega bo'lganidek, har bir xalq ham o'ziga xos ruhiy mohiyatga ega bo'ladi. Bu ruh tarixiy jarayon davomida shakllanadi, kuchayadi, o'z vazifasini bajaradi va sahnadan ketadi. Shu tarzda tarix oqimi davom etadi va yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Sharq falsafasi, uning nazarida, inson tafakkurining bolalik davriga o'xshab ketadi. Sharqda umumiylik, birdamlik, tabiat bilan uyg'unlik ustuvor bo'lgan bo'lsa, antik dunyoda inson qadri, erkinlik va aqlga tayanish kuchaydi. O'rta asrda esa ruhiylik, ilohiylik, diniy tafakkur ustun bo'ldi. Yangi davr falsafasi inson tafakkurining murakkab, qatlamli, tanqidiy va ilmiy shaklga kirish davrini boshlab berdi. Bularning barchasi Gegelga ko'ra bosqichma-bosqich rivojlanib boruvchi dialektik jarayondir. Har bir bosqich o'zidan oldingini inkor qiladi, ammo shu bilan birga undan meros oladi va uni yuksak darajada qayta shakllantiradi.

Gegelning dialektik tizimi "tezis — antitezis — sintez" spiraliga asoslangan bo'lib, bu formulani shogirdlari umumlashtirib yozgan, ammo Gegelning o'z asarlarida ham bu tamoyil aniq seziladi. Misol uchun, antik falsafa — tezis, o'rta asr teologiyasi — unga qarshi antitezis, Yangi davr falsafasi esa sintez sifatida namoyon bo'ladi. Biroq sintez ham yangi tezisga aylanadi va jarayon davom etadi.³³ Shu nuqtai nazardan, Gegel falsafa tarixini to'xtovsiz rivojlanadigan tirik organizm sifatida tasvirlaydi. Uningcha, insoniyatning tafakkuri o'tgan har bir bosqichni o'zida mujassamlashtirgan holda, yanada murakkab, keng ko'lamli, chuqur va mantiqiy shaklga o'tadi.

"Tarix falsafasi" asarining eng muhim jihatlaridan biri - Gegelning falsafiy tizimni teleologik, ya'ni maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida talqin qilganidir. Unga ko'ra, tarixning maqsadi - Mutlaq ruhning o'zini anglashidir. Bunda insoniyatning aql bilan borayotgan izlanishlari, ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy inqiloblar, ilmiy kashfiyotlar, madaniy yuksalishlar - barchasi bir maqsadga xizmat qiladi: tafakkurning o'zini bilishi. Shu bois Gegel tarixni ilohiy aqlning o'zini namoyon etish jarayoni sifatida ko'rgan. Unga

³² Автономова, Н. Рассудок, разум, рациональность. - Москва, 2010.

³³ Иленков, Е.В. Философия дела. - Москва, 1994.

ko'ra, tarixiy zaruratlar, tasodiflar, ijtimoiy kurashlar aslida Mutlaq ruhning ichki harakati bo'lib, insoniyatni yuqori darajaga ko'taradi.

Gegelning ma'ruzalarida falsafiy davrlar- qadimgi Sharq, qadimgi Yunon falsafasi, Hellenistik va Rim davrlari, o'rta asr falsafasi, modern falsafa va nemis idealizmi - alohida bo'limlarga ajratilgan. Hegel har bir davrning mualliflarini tarixiy kontekst bilan bog'lab tahlil qiladi va ularning g'oyalarini ruhning rivojlanish bosqichlari sifatida ko'rsatadi. Hegelning tarixiy tafsiri dialektik metodga asoslangan: u har bir falsafiy tizimni tezis, antitezis va sintez orqali tushuntiradi. Shu yondashuv orqali tarixiy g'oyalar nafaqat o'zaro qarama-qarshilikda, balki ruhning o'zini anglashidagi bosqich sifatida talqin qilinadi.³⁴ Hegel Sharq falsafasini yuqori baholagan bo'lsada, uni tarixning dastlabki bosqichi deb hisoblaydi. Uning fikricha, Sharq „boshlang'ich birlikning ideali“ni yaratgan, unda tabiat va ruh ajralmagan, jamiyat ham birdamlikka asoslangan. Ammo Sharqda individualizm zaif, erkinlik tushunchasi yetarli darajada shakllanmagan deb hisoblaydi. Shunga qaramay, Hegel Sharq tamaddunlarining buyuk tajribasini inkor etmaydi. U hind falsafasi, buddaviylik, xitoy tafakkuri, zardushtiylik va qadimgi sharq donishmandligini keng o'rgangan, ularda olamning umumiy qonunlari va insonning tabiatga munosabati chuqur ifodalanganini ta'kidlaydi. Qadimgi Misr san'ati, Mesopotamiya dunyoqarashi, Hindiston tafakkuridagi dualizm, Xitoyda Konfutsiy ta'limoti -bularning barchasi inson tafakkurining dastlabki shakllanish bosqichi sifatida baholanadi. Hegel qadimgi Sharq madaniyati va falsafasini ruhning rivojlanishining dastlabki bosqichi sifatida baholaydi.³⁵ U Hind, Mesopotamiya va Misr falsafalarini „cheklangan ruhiylik“ nuqtai nazaridan ko'radi: bu madaniyatlarda inson sub'ektligi va aqlning mustaqil roli to'liq shakllanmagan. Zamonaviy tadqiqotchilar esa Hegelning qadimgi Sharqni baholashida G'arb markazchiligiga moyilligini tanqid qiladilar. U ba'zan sharqiy falsafaning murakkab g'oyaviy tizimini yetarlicha qadrlamagan deb hisoblanadi. Hegel antik falsafani esa inson ongining balog'at davri deb ataydi. Uningcha, Gretsiya va Rim dunyosi inson tafakkurining eng sermahsul manbalaridan biridir. Antik falsafa mohiyatan erkinlik, aql, inson qadr-qimmati, mantiqiy fikrlash kabi tushunchalarni yuksak darajaga ko'tardi. Hegel Suqrotning dialektik metodini, Platonning g'oyalar dunyosini, Aristotelning mantiqiy tizimini insoniyat tafakkurining eng yuksak bosqichlaridan biri deb biladi. U antik dunyoni san'at, siyosat, axloq, madaniyat va falsafaning uyg'unlashgan bosqichi deb talqin qiladi.³⁶ Hegel qadimgi Yunon falsafasini inson aqlining tabiatni anglashga kirishgan davri sifatida ko'radi. U Platon va Aristotelni markaziy o'rinlarda tahlil qiladi: Platonda g'oyaning (Idea) ustunligi va Aristoteldagi kategoriya-sistemi ruhning rivojlanishidagi muhim bosqich sifatida ta'riflanadi.³⁷ Yunon dunyoqarashi aqlning mustaqillashishi va umumiy printsiplarni izlash jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davr, Hegel fikricha, inson ruhining tafakkur va tushunish qobiliyatida yangi bosqichni boshlab beradi. Hegel o'rta asr falsafasini diniy dunyoqarash bilan uyg'unlashgan, biroq ruhiy rivojlanish bosqichi

³⁴ Автономова, Н. Рассудок разум рациональность .-Москва, 2010.

³⁵ Kojev, A. Introduction a la Lecture de Hegel. -Paris, 1947.

³⁶ Taylor, C. Hegel.-Cambridge University Press, 1975

³⁷ Иленков, Е.В.Философия дела. - Москва, 1994

sifatida ko'radi. U Avliyo Avgustin, Tomas Aquinas va arab-falsafa vakillarini ko'rib chiqadi.

O'rta asrda teologik-sistematik fikrlash shakllanib, inson ruhining yangi konseptual ramkalarni ishlab chiqishi sodir bo'lgan. Shu bilan birga, dogmatizm va aql ustuvorligining cheklanishi ruhiy erkinlikka to'sqinlik qilgan.. O'rta asr falsafasi esa Hegel nazarida ruhning ilohiylikka qaytish bosqichi bo'lib, bu davrda xristianlik falsafiy tizimning asosiga aylangan. Ammo u o'rta asrlar falsafasini ham biryoqlama inkor qilmaydi. Aksincha, u bu davrni fikrning chuqur ichki tahlil bosqichi sifatida baholaydi. Avgustin, Foma Akvinskiy, Anselm kabi mualliflarning g'oyalari ilohiyot va falsafaning birlashishini ko'rsatadi. Hegel uchun bu davr fikrning ichki dunyoga sho'ng'ish bosqichi bo'lib, unda insonning ma'naviy-tanaviy mohiyatiga alohida e'tibor beriladi.

Uyg'onish davri va Yangi davr falsafasi Hegel nazarida tafakkurning qayta uyg'onishi, insonni markazga qo'yish jarayoni bo'ldi. Dekartning "Men o'ylayman — demak men mavjudman" tamoyili, Bekonning tajribaviy metodga asoslangan ilmiy qarashlari, Spinozaning substansiyaga oid g'oyalari, Leybnitsning monadologiyasi, Lokkning empirik qarashlari, Rasselning tajribaga asoslangan bilish nazariyalari — bularning barchasi fikrning yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Kant falsafasi Hegel uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, Kantning bilish nazariyasi, kategoriya tahlili va nazariy-axloqiy qarashlari Yangi davr falsafasining eng muhim manbasi sifatida e'tirof etiladi.

Hegel o'z falsafa tizimida Kantning chegaralangan zehni tanqid qilgan bo'lsada, Kantning roli tarixda beqiyos ekanini tan oladi.³⁸ Kant aqlni tanqid qilish orqali bilishning chegaralarini belgilagan bo'lsa, Hegel aqlning cheksiz imkoniyatlarini namoyon etishga urindi. Fichte, Shelling kabi nemis idealistlari bilan birgalikda Hegel nemis klassik falsafasining eng oliy bosqichini yaratdi. Uning tizimi nafaqat ontologiya, balki tarix falsafasi, san'at falsafasi, huquq falsafasi, din falsafasi, mantiq, dialektika kabi ko'plab sohalarni birlashtirgan ulkan falsafiy maktabdir.

"Tarix falsafasi" asari Hegelning mantiqiy-metodologik uslubiga asoslangan bo'lib, unda har bir falsafa tizimi Mutlaq ruhning o'zini namoyon qilishi sifatida ko'riladi. Har bir davr ruhini, uning asosiy tushunchalarini, dunyoqarashini va falsafiy muammolarini tahlil qilish orqali Hegel insoniyat tafakkuri qanday shakllanganini, qanday rivojlanganini va yana qaysi yo'nalishga qarab borayotganini tushuntiradi. Unga ko'ra, tarix jarayoni beqaror, tasodifiy yoki boshqarilmaydigan holat emas - aksincha, aql tomonidan boshqariladigan, ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan jarayondir.³⁹

Hegelning fikrlarida siyosat, jamiyat, davlat, erkinlik va huquq kabi tushunchalar ham tarix falsafasi bilan uzviy bog'langan. Uningcha, davlat- erkinlikning amalga oshgan shaklidir. Falsafa tarixi orqali biz erkinlikning qanday shakllanganini, qaysi bosqichlardan o'tgani va qanday rivojlanib borayotganini ko'ramiz. Sharqda erkinlik umumiylikda erib ketgan, antik dunyoda u qisman ro'yob topgan, Yangi davrda esa u

³⁸ Гегел, Г.В.Ф. Феноменология духа –Москва, 2000.

³⁹ Stace, W. Hegel: A Critical Analysis.- London, 1955.

individual, siyosiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lgan. Shunday qilib, tarix falsafasi insoniyatning erkinlik sari yo'lini tushunish uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy davrda Gegelning "Tarix falsafasi" asariga bo'lgan qiziqish yanada oshdi. Chunki globallashuv jarayoni, madaniyatlararo muloqot, tarixiy jarayonlarning murakkablashuvi, siyosiy o'zgarishlar va ilm-fanning rivojlanishi Gegelning dialektik metodiga yana qayta murojaat qilishni taqozo etmoqda. Uning fikrlari hozirgi kunda ham falsafa, tarixshunoslik, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tarixni yaxlit tizim sifatida anglash, g'oya va voqealar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni aniqlash, jamiyat rivojida ziddiyatlarning o'rnini tushunish - bularning barchasi Gegel tizimining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Gegelning „Tarix falsafasi“ asari nafaqat tarixiy faktlarni tartibga solish, balki ularni falsafiy tizim sifatida tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Gegel tarixni shunchaki vaqt ketma-ketligi sifatida emas, balki ruhi (Geist) rivojlanishining dialektik jarayoni sifatida talqin qiladi.⁴⁰

Bu yondashuv zamonaviy falsafada bir nechta jihatdan aks etadi:

1. Tarixiy tafakkurning tizimlashtirilishi: Hozirgi zamonaviy falsafada tarixiy kontekst va g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish muhimdir.

2. Dialektik yondashuv: Gegel falsafiy tizimlarni dialektik bosqichlar orqali tushuntiradi (tezis → antitezis → sintez). Zamonaviy tahliliy va kontinent falsafasida bu printsip hali ham ishlatiladi, ayniqsa Marksist, ekzistensial va hatto feminist nazariyalarda.

3. Ruh va sub'ektlik kontseptsiyasi: Gegel ruh (Geist) orqali tarixiy voqealarni tushuntiradi, zamonaviy nazariyalarda sub'ekt va ijtimoiy konstruksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda bu printsiplar aks etadi.

Gegelning asari va zamonaviy etik, siyosiy va madaniy falsafaga ta'siri ham tarixchilar va olimlar tomonidan o'rganilgan va bir nechta bo'limlarga ajratilgan:

1. Etika va siyosat falsafasi: Gegelning ruh, erkinlik va davlat haqidagi qarashlari zamonaviy siyosiy falsafada ko'plab konseptual inspiratsiya beradi. Gegelga ko'ra, erkinlik faqat sub'ektning shaxsiy qarori emas, balki ijtimoiy-historik jarayon natijasidir, bu zamonaviy siyosiy nazariyani chuqurlashtiradi.(11).

2. Madaniyatshunoslik va estetik falsafa: Gegel san'at va madaniyatni ruhning o'zini anglash jarayoni bilan bog'laydi. Bugungi zamonaviy madaniyatshunoslik va estetik falsafada san'atni faqat estetik obyekt sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va tarixiy kontekst bilan birga tahlil qilish traditsiyasi davom etmoqda.

Gegelning teleologik qarashlari va Yevropasentrizmi zamonaviy falsafiy tanqidlar uchun manba bo'ldi:

1. Marksist tanqid: Karl Marks Gegelning dialektikasini materialistik kontekstga ko'chirdi, ruhni iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilma bilan uyg'unlashtirdi. Natijada, zamonaviy ijtimoiy va siyosiy falsafada dialektik tahlil muhim metod sifatida qoladi.

⁴⁰ Иленков, Е.В.Философия дела. - Москва, 1994.

2. Postkolonial va feministik falsafa: Edvard Said va boshqa postkolonial tadqiqotchilar Gegelning sharq haqidagi qarashlarini tanqid qilib, global tarix va madaniyatlararo munosabatlarni qayta talqin qilish zaruratini ko'rsatdilar.⁴¹

3. Fenomenologiya: Gadamer kabi faylasuflar tarixiy tafakkur va g'oyalarni tahlil qilishda Gegelning metodologiyasidan ilhomlanib, matnlarni kontekst bilan birga anglashga intildilar.

“Tarix falsafasi” nafaqat akademik tadqiqot, balki insoniyat tafakkurining genetik kodini ochib beradigan asardir. U insonning o'zini anglash tarixini qayta tiklaydi, voqealar ortidagi asl ma'noni ko'rsatadi, tarixiy jarayonlarni tushuntiradi va kelajak yo'lini belgilovchi konseptual vositalarni taqdim etadi. Shu bois Gegelning asari nafaqat falsafani, balki butun insoniyat ongining tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Gegelning “Tarix falsafasi” asari jahon falsafasi rivojini yaxlit, mantiqiy va dialektik jarayon sifatida talqin qilgan yirik nazariy tadqiqotdir.

Unda inson tafakkurining qadimgi Sharqdan boshlab Yevropa idealizmi cho'qqisiga qadar bosib o'tgan bosqichlari izchil tahlil etiladi. Gegel falsafa tarixini oddiy faktlar yig'indisi emas, balki muttasil rivojlanadigan “absolyut ruhning o'zini anglash jarayoni” sifatida izohlaydi.

Uning nazarida har bir tarixiy maktab - Sharq donishmandligi, Antik falsafa, O'rta asr teologiyasi, Uyg'onish davri tafakkuri va Yangi davr falsafasi - inson tafakkurining umumiy taraqqiyotida muhim bo'g'in hisoblanadi. Gegel ayniqsa dialektika tamoyilini butun tarixiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rsatadi.

Unga ko'ra, har bir g'oya o'z qarama-qarshiligi orqali inkor-etish-inkor mexanizmi asosida yanada mukammal shaklga o'tadi.

Mazkur yondashuv bugungi zamonaviy falsafa, tarixshunoslik, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlarda chuqur iz qoldirgan. Gegelning “fikrning tarix orqali o'zini tanishi” haqidagi g'oyasi ko'plab tadqiqotchilar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ilm-fan uning dialektik uslubini biryoqlama emas, balki murakkab, ko'p qatlamli jarayon sifatida baholamoqda. Gegelning bu asari tarixiy tafsir va falsafiy tizimni birlashtiruvchi murakkab ilmiy manbadir.

U tarixni ruhning o'zini anglash jarayoni sifatida ko'radi, bu esa dialektik tahlilga imkon beradi. Gegel merosi bugungi kunda falsafa, tarixshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslikda ham dolzarb.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Gegelning “Tarix falsafasi” asari nafaqat falsafa tarixining tasnifi, balki insoniyat intellektual merosining teran tahlili bo'lib, u hozirgi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Asar falsafiy tafakkur evolyutsiyasini anglash, tarixiy voqelikni interpretatsiya qilish hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda muhim manba bo'lib qolmoqda.

⁴¹ Edward. S. Orientalism. – London, 1978.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G. W. F. Hegel. Vorlesungen über die Geschichte der Philosophie (Falsafa tarixi bo'yicha ma'ruzalar). Turli yillar nashrlari.
2. Гегел.Г.В.Ф. Феноменология духа –Москва, 2000.
3. Иленков.Е.В.Философия дела. - Москва, 1994.
4. Автономова. Н. Рассудок, разум, рациональность .-Москва, 2010.
5. Kojev. A. Introduction a la Lecture de Hegel. -Parij, 1947.
6. Stace. W. Hegel: A Critical Analysis.- London, 1955.
7. Taylor. C. Hegel.-Cambridge University Press, 1975.
8. Edward. S. Orientalism. – London, 1978.
9. Internet manbalari:
10. – Stanford Encyclopedia of Philosophy (SEP)
11. – Internet Encyclopedia of Philosophy (IEP)
12. – ResearchGate ilmiy maqolalari